

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
Nizomiy nomidagi TDPU
“Tarix” kafedrası

KURS ISHI

Mavzu: “Chexoslavakiya XX asrning birinchi yarmida.”

Bajardi: Tarix fakul`teti
402- guruh talabasi
Xodjiboyeva M.
Ilmiy rahbar:
t.f.n. dots.N.A.Egamberdieva

Toshkent-2014

REJA

Kirish

1. Federativ davlatning tashkil etilishi
2. Siyosiy –iqtisodiy ahvoli
3. Fashistlar harakatining faollashuvi
4. Germaniyaning Chexoslovakiyani bosib olishi
5. Madaniy hayoti

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Kirish

Hozirgi dunyo murakkab va turfa xil. Unda turli madaniyatlar yonma-yon yashaydi va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Butun dunyo bilan muvaffaqiyatli munosabatlarga kirishish, do'stlik va hamkorlikni rivojlantirish uchun mavjud voqelikning muammolarini chuqur bilish va bu bilimdan umum manfaati yo'lida foydalanish lozim bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov o'zi-ning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolatlari» kitobida dunyo mamlakatlari bilan tinch-totuv yashash va hamkorlik qilishning ahamiyati xususida to'xtalib, shunday yozadi: «Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega? So'nggi vaqtlarda jahonda yuz bergan, duoyoning jo'g'rofiy-siyosiy tuzishini va xaritasini tubdan yangilagan o'zgarishlar hozirgi zamon va kelajak uchun qanday tarixiy ahamiyatga molik? Bular haqida mulohaza yuritish va ularga to'g'ri baho berish juda muhim»¹.

Insoniyat XX asrda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotda ulkan qadamlar tashladi. Asrimizning 20-yillarida boshlangan ilmiy-texnikaviy inqilob hayotning barcha sohalarida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi.

XX asrda Yevropa mamlakatlarining ochiqdan-ochiq qarama-qarshiligi jahon harbiy mojarosiga aylanib ketdi. Ko'pgina mamlakatlarda bu hol biqirlilik jarayoniga, ya'ni jahondagi jarayonlardan chetda turishni nazarda tutuvchi yopiq iqtisodiy taraqqiyot yo'liga sabab bo'ldi. Natijada ular dunyo iqtisodiyotidan ajralib qoldilar. Mazkur mamlakatlarda totalitar, antidemokratik tuzumlar shakllandi, og'ir

¹ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, тараққиёт шартлари ва кафолатлари.- Т., 1997, 87-бет.

iqtisodiy qiyinchiliklar yuzaga keldi. Pirovardida bunday mamlakatlarning ba'zilari harbiy mag'lubiyatga uchradilar (Germaniya, Italiya, Avstriya, Yaponiya), boshqalarida esa siyosiy falokatlar ro'y berdi (sobiq SSSR va Sharqiy Yevropadagi sotsialistik lager mamlakatlari). Shu sababli XX asr birinchi yarmining asosiy mohiyati — demokratiyani totalitarizm bilan, insonparvarlikni fashizm bilan va globallashuvni ayrimchilik bilan kurashidan iborat bo'ldi.

Chexoslovakiya -Markaziy Yevropadagi o'ziga xos tarixiy rivojlanishga ega bo'lgan davlat. 1918 yil Avstriya-Vengriya imperiyasining parchalanishi natijasida chex va slovak xalklari yerlarida tashkil bo'lgan. 1938 yil oktyabr — 1939 yil martda Germaniya tomonidan bosib olingan. 1945 yil mayda Chexoslovakiya hududi ozod etilgach, yagona, mustaqil davlat sifatida qayta tiklandi; 1948 yil xalq demokratik respublikasi deb e'lon kilindi. Chexoslovakiyaning hokimiyati 1989 yilgacha kommunistik partiya turgan. 1960— 1990 yil martda Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi (CHSSR) deb ataldi. 1968 yilda avj olgan jamiyatni demokratik yangilash jarayoni 1968 yil avgustida Varshava shartnomasi tashkiloti a'zolari bo'lgan 5 davlat (SSSR, Bolgariya, Vengriya, Germaniya Demokratik Respublikasi, Pol'sha) qo'shinlari tomonidan barbod etildi. Bu davrlar ichida Chexoslovakiya sotsialistik tuzum yo'lidan borgan.

Kurs ishining maqsad va vazifalari: Chexoslovakiya XX asrning birinchi yarmidagi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini keng yoritish asosiy maqsad qilib belgilandi. Uni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalari belgilandi:

- Federativ davlatning tashkil etilishi jarayonini ochish;

- Siyosiy –iqtisodiy ahvolini taxlil etish;
- Fashistlar harakatining faollashuvini o'rganish;
- Germaniyaning Chexoslovakiyani bosib olishi jarayonini yoritish;
- Madaniy hayotini yoritib berish.

Kurs ishining davriy chegarasi: XX asrning birinchi yarmida Chexoslovakiyaning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy ahvoli va rivojlanishi jarayonlari tarixini qamrab olgan. Shuningdek, Chexoslovakiyaning urushdan keyingi davrlardagi iqtisodiy rivojlanishiga ham to'xtalib o'tilgan.

Mavzuning o'rganilish darajasi Chexoslovakiyaning XX asrning birinchi yarmidagi tarixi maxsus tadqiqot sifatida keng o'rganilmagan. Mazkur mavzu internetning *wikipedia.org* saytida keng berilgan¹. Unda Chexoslovakiyaning XX asrning birinchi yarmidagi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tarixi yoritilgan. Bu mavzu shuningdek, *www.history.ru*, “Jaxon” – *www.jahonnews.uz* ² saytlarida ham mavjud.

Chexoslovakiya haqida O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida ham mazkur mavzu haqida ma'lumotlar mavjud³.

Mavzuning nazariy va metodologik asoslari;

Ushbu mavzuni yoritishda Prezidentimiz I.Karimov tomonidan yaratilgan asarlarida, bugungi kunda tarixchi olimlar oldiga qo'ygan talablar asosida kelib chiqib, mavzuni haqqoniy, ob'ektiv yoritishga harakat qilindi. Shuningdek, mavzuning nazariy asosi solishtirish,

¹ Wikipedia.org.

² *www.history.ru*, “Жахон” – *www.jahonnews.uz*

³ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.. -Т., 2002, 4-том; Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -Т., 2003, 6-том

qiyosiy taxlil, davrlashtirish va turli tarixiy uslublardan foydalanilgan holda yoritildi.

Kurs ishining tarkibiy tuzulishi

Kurs ishi Kirish, besh bo'lim xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat

1.Federativ davlatning tashkil etilishi

XIX asr oxirlarida Chexoslovakiya Avstriya-Vengriya imperiyasi tarkibida bo'lgan. Avstriya-Vengriya imperiyasi Avstriya va Vengriyaning hukmron sinflari o'rtasidagi bitim asosida 1867 yilda Avstriya imperiyasini qayta tuzish natijasida tashkil topgan dualistik (birlashgan ikki davlatli) monarxiya hisoblanadi. Bu monarxiyaga Avstriya (TSisleytaniya) va Vengriya qirolligi (Transleytaniya)dan tashkil topdi. Avstriya tarkibiga CHexiya, Moraviya, Galitsiya, Bukovina va b. yerlar, Vengriya qirolligiga Slovakiya, Xorvatiya, Transilvaniya va b. yerlar kirdi. O'sha yili yangi konstitutsiya qabul qilindi. Avstriya-Vengriya imperiyasi hokimiyatini Avstriya imperatori boshqardi (u Vengriya qiro-li degan unvonga ham ega edi). Imperator hokimiyati rasman Avstriyada reyxstag, Vengriyada seym tomonidan cheklandi¹. Butun imperiya bo'yicha uch ministrlilik: 1) tashqi ishlar; 2) harbiy va dengiz; 3) moliya ministrlilik-lari tashkil etildi. Harbiy va dengiz hamda moliya ministrliklari imperiyaning har ikki qismida ham mavjud edi. Boshqa ministrliklar Avstriyada ham, Vengriyada ham mustaqil ish yuritgan. 1867 yil bitimiga binoan, Vengriya o'z parlamentiga, ministrliklariga, siyosiy va ma'muriy muxtoriyatga ega bo'ldi. Birinchi jahon urushida Avstriya-Vengriya imperiyasining mag'lubiyati va milliy ozodlik kurashlari natijasida 1918 yilning oxirida Avstriya-Vengriya imperiyasi parchalanib ketdi. Avstriya-Vengriya imperiyasi o'rnida Avstriya, Vengriya, Chexoslovakiya davlatlari tuzildi, hududning bir qismi esa Yugoslaviya, Ruminiya va Polsha tarkibiga kiritildi.

¹ Jahon mamlakatlari. Qisqa ma'lumotnoma. -T., "Sharq", 2009, 34-6et.

Versal, Sen-Jermen va Trianon shartnomalari Chexoslovakiya chegaralarini belgilab berdi va 1920-yili Yevropa xaritasida Chexoslovakiya nomli yangi davlat paydo bo'ldi. Uning tarkibiga sobiq Avstro-Vengriya va Germaniya hududlarining qismlari — Chexiya, Moraviya, Sileziyaning bir qismi, Slovakiya, Karpatori Ukrainasi kirdi. Yangi tuzilgan davlatning maydoni 140,4 kv. km.ni tashkil etdi, bu yerda 15 mln. kishi yashardi. Aholining taxminan yarmini chexlar, beshdan birini slovaklar, qolganini vengrlar, nemislar, ukrainlar, polyaklar va boshqalar tashkil etardi. Nemislar mamlakatning eng rivojlangan qismi — Sudetda yashashar, ularning soni 3,5 mln. kishigacha edi¹. Avvalgi Avstro-Vengriyaning eng rivojlangan qismi Chexoslovakiyaga o'tdi. Bu yerda sobiq imperiya kimyo sanoati-ning 52, to'qimachilikning 75, ko'mir sanoatining 76, oynasozlikning (mashhur Bogemiya oynasi) 93, chinnisozlikning 100 foizi joylashgan edi. Shuningdek, mamlakatda yirik mashinasozlik va harbiy zavodlar (Shkoda) ham mavjud edi.

2. Siyosiy –iqtisodiy ahvoli

Mamlakatdagi ko'p sonli milliy tarkib shunga olib keldiki, siyosiy kurash millatlararo kurashga aylanib ketdi va partiyalar ijtimoiy guruhlarni emas, milliy-etnik guruhlarni ifodaladi. 1918-yil noyabrda saylangan birinchi hukumat faqat chex partiyalari vakillaridan tuzildi va Chexoslovakiya respublikasining birinchi prezidentligiga ham chex burjuaziyasi vakili, taniqli chex tarixchisi va faylasufi, professor Tomash Masarik (1850—1937) saylandi. Chex siyosiy partiyalarining

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -Т., 2003, 6-том, 278-бет.

eng ta'sirdor muxolifchilari nemis partiyalari edi. Ular orasida Nemis agrar partiyasi, Nemis milliy partiyasi va Nemis xristian-sotsial partiyasi ajralib turardi. Mazkur partiyalar Chexoslovakiya aholisining nemislar qismi manfaatlarini ifodalardi va turli darajada Germaniya bilan bog'liq edilar.

Xalq-sotsialistik partiyasi eng nufuzli partiyaga aylandi. Bu partiya aholining o'rta qatlamlariga, shuningdek millatchilik kayfiyatidagi ishchilarning bir qismiga tayanardi. Ushbu partiyaning mafkurachilari va ma'naviy peshvolari Tomash Masarik hamda Edvard Benesh (1884—1948) edi. Benesh dehqon oilasidan chiqqan, Praga va Parijda ta'lim olgan. 1918-yildan 1935-yilgacha Chexoslovakiya tashqi ishlar vaziri, Tomash Masarik iste'fosidan so'ng, 1935 yil dekabrda Chexoslovakiya prezidenti bo'ldi. U G'arb bilan ham, Sovet Ittifoqi bilan ham do'stona munosabatlar tarafdori edi. Chexoslovakiyani fashistlar Germaniyasi zabt etganidan so'ng Angliyaga muhojirlikka ketdi. 1936 yil Germaniya bilann maxfiy muzokara boshlab, Chexoslovakiyani parchalash haqidagi 1938 yili *Myunxen bitimi* imzolanganach, iste'fo berib, chet elga ketgan. 1940 yildan Londondagi chexoslovak muhojirlar hukumati va davlat kengashi raisi bo'lib faoliyat yuritgan. 1946 yil iyunda Chexoslovakiya Demokratik Respublikasining prezidenti qilib saylangan. 1948 yil iyun oyidan iste'fo bergan.

Versal shartnomasi tufayli Yevropada tuzilgan yangi davlatlardan faqat Chexoslovakiya avtoritar tartibotdan saqlanib qoldi.

Kuchli industrial baza, nufuzli o'rta sinf va 1848-yil inqilobidan tarixi boshlangan boy sotsial-demokratik an'analar liberal ijtimoiy

islohotlar o'tkazilishiga qulay sharoif yaratdi. Chexoslovakiya prezident Tomash Masarik siymosida iste'dodli, mashhur milliy yo'lboshchiga ega edi. T. Masarik barcha slovyanlarni, ya'ni janubiy va g'arbiy slavyanlar — chexlar va slovaklarni, serblaru xorvatlarni yarashtirishning jonkuyar kurashchisi edi. U ikki marta respublika prezidentligiga qayta saylandi hamda 1935-yilda o'z do'sti, safdoshi va maslakdoshi E. Benesh foydasiga bu lavozimni rad etdi.

Agrar islohotlar o'tkazilganligi E. Benesh hukumatining katta yutug'i bo'ldi. 250 gektardan ziyod katta yer mulklari kredit muassasalari orqali to'lov bilan mayda dehqon xo'jaliklariga taqsimlab berildi¹. Shu tariqa respublikaning tayanchi va ijtimoiy bazasiga aylangan mulkdor-dehqon-larning nufuzli qatlami vujudga keltirildi.

1920-yilda respublika konstitutsiyasi qabul qilindi. Bu konstitutsiya Birinchi jahon urushidan so'ng yuzaga kelgan barcha mamlakatlarga qiyosan eng demokratik edi. «Xalq har qanday hokimiyatning yagona manbai hisoblanadi», — deyilgandi konstitutsiyaning 1-bandida. 21 yoshga yetgan barcha fuqarolarga saylov huquqi berildi, ovoz berish bevosita, teng, umumiy va yashirin edi. Benesh hukumati milliy birlashuvini o'zining asosiy tamoyili deb e'lon qildi. «Yuksak darajada mustahkamlash va chexoslovak davlatining konsolidatsiyasi» — E. Benesh o'zining asosiy vazi-fasini shunday ta'rifladi.

1925—1929-yillar sanoat ishlab chiqarishining yuksalishi bilan belgilandi, chex burjuaziyasi mamlakatdagi o'z hukmron holatini mustahkamladi. Sanoat ishlab chiqarishi jadal o'sib, 1929-yilda urushdan

¹ Жахон — www.jahonnews.uz

oldingi darajadan 20 foizga ortib ketdi. Mehnatkashlarning ahvoli ham yaxshilandi. Bu yutuqlarning barchasi 1929—1932-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi sababli yo'qqa chiqdi. Sanoat ishlab chiqarish hajmi 60 foizgacha kamaydi. Ko'plab mayda korxonalar xarob bo'lib, ularning mol-mulklari sotib yuborildi, ishsizlar soni 1 mln. kishiga yetdi. Dehqon xo'jaliklari ham xaroblikka uchrab, ularning mol-mulkini yirik burjuaziya arzimagan bahoda sotib olardi. Mamlakatning moddiy ahvoli keskin yomonlashdi. Ishchi-xizmatchilarning ish haqi 50—60 foizga pasaydi¹.

Jahon iqtisodiy inqirozi mamlakatdagi barcha ziddiyatlarni, eng avvalo milliy ziddiyatlarni yangicha kuch bilan namoyon etdi.

Fashistlar Germaniyasi tor-mor etilgandan keyin mamlakatga asosiy siyosiy kuchlar yo'lboshchilari — kommunistlar rahbari K.Gotvald, muhojirlar hukumati boshlig'i E.Benesh, koshitskiy hukumati bosh vaziri Z.Firlingerlar qaytishdi. Chexoslovakiya hududida katta janglar bo'lmagani uchun mamlakat xo'jaligi vayron bo'lmadi. Biroq siyosiy jihatdan Chexiya va Slovakiya tarixan shakllangan yago-na davlat bo'lmagani uchun awalboshidanoq ular o'rtasidagi raqobat mamlakatni bo'lib yubordi.

Milliy kengash E.Beneshni mamlakatning birinchi prezidenti etib tayinladi. E.Benesh prezident lavozimidan voz kechishi yoki kommunistlar irodasini mo'minlik bilan bajarishdek ikki mushkul ishdan birini tanlashi lozim edi. U ikkinchisini tanladi. E.Benesh 1945-yil 19-mayda german va venger mulkdorlari, shuningdek, kol-laboratsionistlarga tegishli zavod, yer mulklari, bank, sug'urta kompaniyalari va boshqa

¹ Чехославакія.<http://ru.wikipedia.org/wiki/Чехословакія>

korxona hamda muas-sasalarni davlatga berish haqida dekret chiqardi.

1945-yU 21-iyunda german va venger mulkdorlari, shuningdek, fashistlar bilan hamkorUk qilganlarning yer, o'rmon, buyumlarini bepul musodara qilish haqida dekret qabul qilindi. Uncha ko'p bo'lmagan to'lov evazi-ga dehqonlar 13 dekabrga qadar yer olishi mumkin edi. Dehqonlarga, shuningdek, Chexoslovakiya hududidan ko'chirib yuborilgan nemislar yerlari ham berildi. Potsdam konferensiyasi qaroriga ko'ra, Chexo-slovakiyadan Germaniyaga 2,5 million nemislar ko'chi-rildi, yerlari esa chex va slovaklarga bo'lib berildi. Shu yo'l bilan 303 mingdan ziyod dehqon xo'jaligi 1,2 million gektar yerga ega bo'ldi.

1945-yil 24-oktabrda E.Benesh yirik korxonalar, banklar va xususiy sug'urta kompaniyalarini natsiona-lizatsiya qilish haqidagi dekretga qo'l qo'yadi. Korxonalarda ishchi nazoratini amalga oshiruvchi ishchi kengashlari tashkil etildi.

1946-yil 26-may saylovlari CHKPga muvaffaqiyat keltirdi. K.Gotvald boshchiligidagi koalitsion hukumat tuzildi.

Milliy kengash, hukumat va milhy majlisda CHKP va burjua partiyalari o'rtasida turli masalalar: agrar islohot-larni chuqurlashtirish, iqtisodiy rivojlanishning ikki yillik rejasi, "Marshall rejasi"ga qo'shilish bo'yicha o'tkir siyosiy kurash boshlandi.

1⁹⁴⁸:^ fevralda yangi kons- titutsiyaning muhokama qi-linishi burjuaziyani bevaqt norozilikka undadi. Shu yil 20-fevral kuni burjuaziya partiyalari vakillari bo'lgan 12 vazir iste'foga chiqdi. Ular bu bilan K.Gotvald ko'pchilik qo'llab-quwatlashidan mahrum bo'lib, u ham iste'foga chiqadi va shunda kabi-net tarkibini qayta ko'rib chiqish mumkin bo'ladi, deb umid qilishdi.

Kommunistlar da'vati bilan 1948-yil 24-fevralda 2,5 million ishchi va xizmatchi bir soatli ogohlantiruvchi ish tashlash o'tkazdi. Xalq sabotajchi vazirlar qiyofasida urushdan oldingi g'arbparast Myunxen siyosatdonlari vakillarini ko'rdi va ularning hokimiyatga qaytishini xohlamadi. Qo'shin kommunistlar tarafida turdi. Burjua partiyalari "o'yinlari" barbod bo'ldi. 1948-yilning 25-fevralida prezident E. Benesh o'ng partiyalar vazirlari iste'fosini qabul qildi. Endi hukumat kommunistlar va so'l sotsial-demokratlardan iborat bo'ldi, ular CHKP qarashlari va siyosatini ma'qullar edi.

Qariyb barcha sanoat korxonalari va savdo firmalari natsionalizatsiya qilindi. Milliy kengash tarkibi yangilan-di, unga endi faqat kommunistlar va uning tarafdorlari kirdi.

1948-yil 9-mayda "Chexoslovakiyada sotsializm qurilishini e'lon qilgan yangi konstitutsiya qabul qilindi. Yangi Konstitutsiya asosida 1948-yil 30-mayda mam-lakatda saylovlar bo'lib o'tdi, unda kommunistlar va ularning ittifoqchilari uchun saylovchilarning 89 foizi ovoz berdi. 1948-yil 6-iyunda E.Benesh iste'foga chiqdi va mamlakat prezidenti etib K.Gotvald saylandi. 1948-yil iyunda CHKP va sotsial-demokratlar partiyasining yag-ona Chexoslovakiya kommunistik partiyasiga birlashuvi ro'y berdi. Kommunistlar 1949-yil mayda sotsializm asoslarini qurish dasturi va sotsialistik industrlashtirish rejasini qabul qildi.

1948-yilda mamlakatda iqtisodiy rivojlanishning besh yillik rejasi (1948-1953) qabul qilindiki, u muvaffaqiyatli bajarildi. Bu davrda yalpi sanoat mahsuloti 93 foizga, mashinasozlik mahsuloti — 94 foizga o'sdi. 12 ta yangi elektrostansiya, yirik metal-lurgiya korxonasi qurildi.

Aholining turmush darajasi oshdi, oyUk ish haqi o'sdi, kartochka tizimi tugatildi.

Ayni paytda mamlakatda partiyadagi o'zgacha fikrlovchilar va umuman mamlakatdagi muxoliflarni yo'qotish maqsadida qudratli qatag'on apparati yaratildi. Ommaviy qamoqlar, siyosiy tashkilotlar va davlat tash-Idlotida tozalashlar o'tkazildi. Kommunistlar mamlakatda qo'rquv va ishonchsizlik urug'ini sochdiK.Gotvaldning 1953-yil martdagi vafotidan so'ng sobiq bosh vazir A.Zapototskiy (1884—1957) prezident bo'ldi, 1957-yilda uning o'rmini Antonin Novotniy (1904—1975) egalladi.

A.Novotniyning Chexoslovakiyani butun sotsialistik lager mashinasozlik markazi-ga aylantirish g'oyasi davlat mablag'larini o'ta isrofgarlik bilan sarflashga olib keldi. Byudjet mablag'larining asosiy qismi iste'mol mollarini ishlab chiqarish va xizmatlarni rivojlantirishga zarar keltirgan holda og'ir sanoatni rivojlantirishga yo'naltirildi. O'ylanmay qilingan iqtisodiy siyosat og'ir oqibatlarga olib keldi. 1961—1963-yillarda mamlakatni og'ir iqtisodiy inqiroz chulg'ab oldi, u 1966-yilgacha davom etdi. Uchinchi besh yillikda (1961—1966) sanoatning rivojlanishi qariyb to'xtab qoldi, qishloq xo'jahk mahsul-dorhgingining o'sishi esa eng quyi darajada bo'ldi.

Davlat sotsializmining iqtisodiy tizimi iqtisodiy rivojlanishning obyektiv qonunlari bilan ziddiyatga kelib qoldi. Korxonalar samarasiz, mahsuloti raqobatga dosh berolmaydigan bo'lib qoldi. Sanoatda ham, qishloq xo'jaligida ham mehnat unumdorhgi pasaydi, ishlab chiqarish aloqalari intizomi buzildi.

3. Fashistlar harakatining faollashuvi

Evropadagi boshqa davlatlardagi kabi 30-yillarda

Chexoslovakiyada ham fashistik harakat faollashdi. Birinchi fashistik tashkilotlar mamlakatda 1926-yildayoq vujudga kelgan edi, lekin ularning ochiq chiqishlari Gitler 1933-yili hokimiyat tepasiga kelgandan so'ng yuz berdi. 1933-yil yozidayoq G. Genlayn boshchiligidagi sudetlik natsional sotsialistlar Sudet viloyatining Chexoslovakiyadan ajratilishini va Germaniyaga berilishini talab qilishdi. Bu hol mamlakat hukumatini tashqi siyosatda muhim qadam tashlashga — Sovet Ittifoqini tan olishga va u bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishga majbur etdi. 1934-yil iyunida Chexoslovakiya bilan SSSR o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi, savdo shartnomasi va kredit bitimi tuzildi.

Gitlerchilar tahdidi o'sayotgan vaziyatda SSSR va Fransiya o'zaro yordam haqida ikkiyoqlama shartnoma tuzdi. Xuddi shunday shartnoma Chexoslovakiya bilan Fransiya o'rtasida ham imzolandi. 1935-yil martida gitlerchi hukumatning umumiy harbiy majburiyatni joriy etganligi Chexoslovakiya hukumatini SSSR bilan ham shunday shartnoma imzolashga majbur qildi. Har ikki shartnomada ham Yevropadagi uchinchi davlat ittifoqchiga hujum qilganda darhol yordam ko'rsatish shartligi qayd etilgan band bor edi. Bu shartnomalarning matnlari o'xshash bo'lib, faqat sovet-chexoslovak shartnomasiga E. Beneshning talabi bo'yicha Fransiya o'z yordami haqida ma'lum qilgan holatdagina SSSR tomonidan Chexoslovakiyaga ko'mak berilishi haqidagi band kiritilgandi. Ushbu band uch yildan so'ng Chexoslovakiya taqdirida mash'um rol o'ynadi. Fransiya yordam berishdan bosh tortgach, Sovet Ittifoqining aralashuvi masalasi ham avtomatik ravishda ko'tarilmadi.

1935-yilgi saylov yakunlari mamlakat yaxlitligining bo'lg'usi

muammolari haqida xatarli ogohlantirish bo'ldi. Sudet-nemis partiyasi ovozlari soni bo'yicha ikkinchi bo'lib, katta yutuqqa erishdi. Bu partiya 1.240 ming saylovchi ovoz berdi. Natijada Sudet-nemis partiyasi deputatlar palatasida 44 mandatga ega bo'ldi, agrar partiya 45 ta mandat oldi¹. Bir necha partiyalar, jumladan, Sudet-nemis partiyasi asosida tuzilgan hukumatga agrar partiya vakili M. Godja boshchilik qildi.

1938-yil aprelda Sudet-nemis partiyasi qurultoyida Sudet viloyatiga «muxtoriyat» berish talabi ilgari surildi. Germaniya ushbu talabni quwatlash uchun 1938-yil maydan o'z qo'shinlarini Chexoslovakiya chegarasi tomon surdi. O'z navbatida Chexoslovakiya ham qurolli kuchlarni kuchaytirish choralarini ko'rdi.

Hukumat barcha ozchilik millatlarga to'liq tenghuquqlilik berilgan, mahalliy va umumdavlat boshqaruv darajalarida mutanosib vakillik belgilangan reja bilan chiqdi. Davlat apparatini qayta tashkil etishga hamda ozchilik millatlarga milliy madaniyatni va iqtisodiyotni rivojlantirish uchun maxsus zayomlar berishga qaror qilindi. Lekin bu harakatlar kechikkan bo'lib chiqdi.

4. Germaniyaning Chexoslovakiyani bosib olishi

Angliya va Fransiya vositachilikni o'tashga hamda urush xavfini yo'qotishga qaror qildi. Chexoslovakiya Gitlerni tinchlantirish siyosatidagi muhim bo'g'inlardan biri edi. 1938-yil 18-iyunidayoq Germaniyada Chexoslovakiyani tor-mor etish va yo'q qilishning shartli ravishda «Gryun» deb nomlangan operatsiyasi rejasi tayyorlangan edi. Bu ish uchun faqat vaqt kerak edi. Chexoslovakiya Avstriyadan so'ng

¹ Чехославакия.<http://ru.wikipedia.org/wiki/Chexoslovakiya>

tinchlantirish rejalarini amalga oshirish uchun Angliya va Fransiya Germaniyaga berishni istagan ikkinchi qurbon bo'lishi kerak edi.

Angliya va Fransiya vakillari chexoslovak hukumatini fashistlarga yon berishga har tomonlama undashdi. 19-sentabrda Angliya Bosh vaziri N. Chamberlen va Fransiya Bosh vaziri E. Dalade prezident E. Beneshga aholisining yarmidan ko'pi nemislar bo'lgan viloyatlarni Germaniyaga berishni tavsiya etishdi. Shu tariqa Angliya va Fransiyaning Chexoslovakiyaga Germaniya tomonidan xavf tug'ilgani munosabati bilan qilgan barcha harakatlari aslida agressorni emas, uning qurbonini jilovlash uchun intilishlarga aylandi. London va Parij fashistik reyx bilan Chexoslovakiyaning mavjudligi bahonasida til topishishga harakat qilishdi.

M. Godja boshchiligidagi chexoslovak hukumati ingliz-fransuz tavsiyalariga rozi bo'ldi. Biroq bu chexoslovak xalqining keskin noroziligini uyg'otdi. 1938-yil 22-sentabrda Pragada ko'pming kishilik namoyish bo'lib o'tdi. Namoyishchilar Godja hukumatining iste'fo berishini va umumiy safarbarlik e'lon etilishini talab qilishdi. Xuddi shu kuni umumiy ish tashlash ham boshlandi. Godja hukumati iste'foga chiqdi, general Sirovning yangi hukumati umumiy safarbarlik e'lon qildi va qo'shirlarni chegara rayonlaridan olib ketishdan bosh tortdi.

General Sirovning qat'iyligi shu bilan izohlanadiki, Pragada «o'ta zarur holatda SSSR Fransiya bog'liqsiz ravishda Chexoslovakiyaga yordam berishi mumkin»ligi haqida xabar olingandi. Bu Chexoslovakiya kommunistlarining rahbari K. Gotvald orqali uning shaxsiy so'roviga javoban Stalinning prezident Beneshga bildirgan bayonoti edi. Bunday yordam uchun faqat bitta shart — chexoslovak hukumatining yordam

haqida iltimos bilan murojaat qilishi kerakligi aytilgandi. Biroq bunday murojaat qilinmadi.

Benesh Sovet Ittifoqi bilan birgalikda mamlakatni qutqarishdan ko'ra G'arb davlatlarining fashistlar bilan til biriktirib chiqaradigan qarorini itoatkorona kutishni afzal ko'rdi. 29—30-sentabrda Myunxendagi konferensiyada Chexoslovakiyaga Sudet viloyatini Germaniyaga, boshqa ayrim hududlarini Polsha va Vengriyaga berish taklif qilindi. Chexoslovakiya hukumati bu taklifni qabul qilishga majbur bo'ldi. 1938-yil 1-oktabrda Germaniya qo'shinlari Sudet viloyatiga kirdi va u fashistik reyxnning bir qismiga aylandi. Benesh Gitlerning talabiga ko'ra iste'foga chiqdi va chet elga ketdi. Gaxa prezident bo'ldi. Lekin Chexoslovakiya fojiasi bu bilan tugamadi.

1939-yil 15-martda german qo'shinlari Chexoslovakiya hududiga bostirib kirdi. Xuddi shu kuni Praga, Chexiya, Moraviya fashistlar tomonidan ishg'ol etildi. Chexoslovak armiyasi tarqatib yuborildi, uning qurol-aslahasi german vermaxti qo'lga, butun oltin zaxirasi esa german xazinasini yerto'lasiga o'tdi. Qo'shnisining shunday og'ir ahvolidan foydalangan holda Vengriya Slovakiyaning katta qismini va Karpatorti Ukrainasini, Polsha Teshin rayoni va Slovakiyaning ikki rayonini bosib oldi. Angliya va Fransiya o'zlarining Chexoslovakiya oldidagi majburiyatlarini unutib, fashistlarning bu ishini tabiiy deb qabul qilganicha amalda hech qanday javob qaytarishmadi. Faqat SSSR hukumati chexoslovak davlatining tugatilishiga qarshi qat'iy norozilik bildirdi, biroq bu e'tiborga olinmadi. Biroz vaqt o'tganidan so'ng Chexoslovakiya o'rnida german reyxi tarkibidagi Bogemiya va

Moraviya protektoratlari tashkil etilishi e'lon qilindi¹.

Germaniya, Italiya va Yaponiyaning aybi bilann boshlangan jahon tari-xidagi eng yirik urush bo'ldi. XX asrning fojiasi sifatida insoniyat tarixiga kirdi. Bu urushning kelib chiqishida asosiy rolni fashistlar Germaniyasi o'ynadi. G'arb mamlakatlari (Angliya, Frantsiya, AQSH) hukmron doiralarining «kelishtirish» siyosati Avstriya va Chexoslovakiyaning 1939 yil mart oyida Germaniyaga qo'shib olinishiga va Myunxen bitimiga yo'l ochib berdi.

1945 yil 9 mayda sovet qo'shinlari, chex qarshilik harakati kuchlari ishtirokida Chexoslovakiyaning poytaxti Pragani ozod qildi. 1945-yil martida Chexoslovakiyada Milliy front tuzildi. Respublika Prezidenti lavozimini E. Benesh galladi. 1945-yil 4-aprelda Z. Firlinger boshliq hukumat tuzildi. K. Gotvald Bosh vazir o'rinbosari bo'lib qoldi. Bu tarixda «Koshitse hukumati» deb nom oldi. 1945-yil 21-iyunda fashistlar bilan hamkorlik qilganlarning mulki bepul musodara qilindi. 24-iyunda korxonalar, banklar milliylashtirildi. 1946-yil 26-mayda K. Gotvald hukumat boshlig'i lavozimini egalladi. 1948-yil 6-iyunda E. Benesh iste'foga chiqqach, K. Gotvald mamlakat Prezidenti etib saylandi. 50-yillarda sanoat 93 foizga o'sdi, yirik korxonalar qurildi, xalqning turmush darajasi oshdi. 1953-yil martda, K. Gotvald vafotidan keyin, A. Zapoteskiy Prezident bo'ldi, 1957-yilda uning o'rniga A. Novotniy (1904—1975) keldi². Lekin 1961—1963-yillarda mamlakatda og'ir inqiroz ro'y berdi va u 1966-yilgacha davom etdi. Sanoat va qishloq xo'jaligi o'sishi, mehnat unumdorligi pasaydi. Xalqning

¹ www.history.ru

² Чехославакия.[http://ru.wikipedia.org/wiki/ Chexoslovakiya](http://ru.wikipedia.org/wiki/Chexoslovakiya)

noroziligi kuchaydi. A. Novotniyning uzoq yillik hukmronligi davrida qotib qolgan totalitar jamiyatni o'zgartirishga da'vatchilar ko'paydi. Natijada 1968- yilning yanvar oyida Chexoslovakiyada A. Dubchek boshchiligida jamiyatni islohot yo'li bilan tubdan yangilash tarafdorlari bo'lgan kuchlar hokimiyat tepasiga kelishdi. A. Novotniy lavozimidan ketdi. A. Dubchek iqtisodiyotga bozor munosabatlarini joriy etish, jamiyatni demokratlashtirish rejasini e'lon qildi. SSSR oliy siyosiy rahbariyati, shuningdek, CHKPning KPSSga sodiq qismi bu rejani «aksilinqilobiy reja» deb hisobladilar. Ayni paytda A. Dubchek va uning tarafdorlarini o'z rejasidan voz kechishga chaqirdilar. Biroq A. Dubchek boshchiligidagi CHKPning islohotchi rahbariyati o'z fikrlarida qat'iy turdilar. 1968-yil 21-avgust kuni Varshava Shartnomasiga a'zo 5 davlat (SSSR, Polsha, GDR, Vengriya va Bolgariya) armiyasi Chexoslovakiya hududiga kiritildi. Shu tariqa totalitar sotsializmni yo'q qilish yo'lidagi harakat bostirildi. A. Dubchek va boshqalar hibsga olindi. Tarixga bu voqealar «Praga bahori» nomi bilan kirdi. Bu voqealar Sharqiy Yevropa davlatlarida sovet nusxasidagi sotsializm aholi xohishistagiga qarshi kuch bilan o'rnatilganligini yana bir bor isbotladi.

5. Madaniy hayoti

XX asrning birinchi yarmida Chexoslovakiyada madaniy hayotida ko'plab yangi g'oya va qarashlar bilan boyidi. Bu birinchi navbatda Chexoslovakiyaning mustaqil davlatga aylanishi va sotsialistik, fashistik g'oyalarning kirib kelishi bilan bog'liq edi.

1848—49 yil inqilobi ta'siri natijasida adabiyotda milliy ozodlik g'oyalari kuchaydi, ijtimoiy masalalarga e'tibor oshdi. K. Gavlichek-Borovski va B. Nemtsova Avstriya monarxiyasidagi ijtimoiy munosa-

batlarni tanqid qilib chiqdilar. Tanqidiy realizmning paydo bo'lishi, asosan, Ya. Neruda ijodi bilann bog'liq. A. Stashek asarlari, A. Irasek, V.B. Trshebizskiy tarixiy nasri ijtimoiy romanning shakllanishida asos bo'ldi. SHe'riyatning ijtimoiy ahamiyati oshdi.

XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida modernistik va dekadentlik oqimlari paydo bo'ldi. 1920—30 yillarda yozuvchi Karel CHepek, 1940-yillarda shoir Yaroslav Zeyfert samarali ijod qildi¹. Urushdan keyingi davr adabiyotda antifashistik mavzu keng o'rin egalladi. Bu sohada yozuvchilardan V. Rjezach, V. Nezval ijodi muhim o'rin tutadi. 1960—80-yillarda Vatslav Gavelning Chexoslovakiya hayotini aks ettirgan dramalari, Milan Kunder, Bogumir Grabal kabi yozuvchilarning asarlari paydo bo'ldi. Ammo adabiyotning asosiy g'oyaviy yo'nalishini ijtimoiy va milliy ozodlik kurashi masalalari belgilab berdi.

Fuchik Yulius (23.2.1903., Praga -8.9.1943., Berlin) — chex yozuvchisi, tanqidchi va jurnalist. CHSSR Milliy qahramoni sanaladi. U 1921 yilda Plъzendagi real gimnaziyani tugatgach, Praga universitetining falsafa fakulъtetida o'qigan. 1922 yildan adabiyot va teatr masalalariga oid maqolalar chop eta boshlagan. «Kmen» («Stvol», 1927—29) va «Tvorba» («Ijod», 1927—28) jurnalalriga muharrirlik qilgan paytida barcha ilg'or kuchlarni yagona front atrofida birlashtirishga uringan. 1930 va 1934—36 yillarda SSSRda bo'lib, safar taassurotlari asosida «Ertangi kunimiz ke-chagi kun bo'lib qolgan mamlakatda» (1932) kitobini yozgan. SSSRga qilgan 2-safari vaqtida O'zbekistonda birmuncha vaqq yashab, mamlakatimizda ro'y ber-gan o'zgarishlarni kuzatgan va o'zbek xotin-qizlari hayotiga bag'ishlangan

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.. -Т., 2002, 4-том, 345-бет.

«To-jixon SHodieva tarixi», «Roziyaxon Mirsoatova» singari ocherklar yozgan. F. O'rta Osiyo xalqlari hayotiga doir 24 ta ocherk va maqola e'lon qilgan. F. ning 30-yillar so'ngidagi adabiy-tanqidiy faoliyatida umuminsoniy qadriyatlarni fashizm xavfidan saklab qolish g'oyalari ustuvorlik kiladi. 1942 yil aprelda Chexoslovakiya kompartiyasining yashirin nashrlariga rahbarlik qilgani uchun gestapo tomonidan hibsga olingan va 1943 yilning yozida Germaniyaga olib ketilib, qatl etilgan. Fuchik Yulius Pragadagi Pankrats qamoqxonasida «Dor ostidagi so'z» (1942) kitobini yozgan. Ko'pgina tillarga tarjima etilgan ushbu kitob fashizmga qarshi mardona kurash olib borgan kishilar, shu jumladan, Fuchik Yuliusning o'zi haqidagi, ularning matonati va jasorati haqidagi hujjatli qissadir.

Fuchik Yulius tinchlik tarafdorlarining 1950 yilda bo'lib o'tgan 2-butunjahon kongressida Xalqaro tinchlik mukofoti bilan takdirlangan. Asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan.

1918 yil mustaqil Chexoslovakiya respublikasi tashkil bo'lgach, milliy madaniyatni rivojlantirish imkoniyati paydo bo'ldi. Ko'p avangardchi rassomlar o'z asarlarida - real voqelikni aks ettirdilar (V. Novak, O Ku-bin, CHapek, V. Rabas). Ayrim rassomlar ishchilar sinfi kurashini haqqoniy tasvirladilar (K. Golan, K. SHtika rangtasvir asarlari, K. Pokorniy, Lauda haykallari, F. Bidlo, V. Silovskiyning grafik asarlari). XX-asrning 20—30-yillarida chex san'atida ijtimoiy-tanqidiy yo'nalish shakllandi. 1945 yil Chexoslovakiya nemis-fashistlardan ozod etilgach, rassomlar E. Filla, A. Paderlik, V. Sedlichek, haykaltaroshlar V. Makovskiy, K. Liditskiy, K. Pokorniy samarali ijod qildilar. Bu davrda monumental-bezak san'ati turlari rivojlandi.

XIX-asr oxiri — XX-asr boshlarida Lirik va San'at teatrga asos solingan. Bu davrda faoliyat ko'rsatdi, havaskorlik teatrlari ko'paydi. Plzeň, Brno va b. shaharlarda teatrlar paydo bo'ldi. 1919 yildan Brno, 1920 yildan Olomouts shahar teatrlari, 1933 yildan Pragada «D-34» teatri ishlay boshladi¹. Bu davr teatr arboblari aktyorlar — V. Vidra, Ya. SHkoda mashhur bo'lgan. II-jahon urushidan keyin Pragada Realistik teatr, Satira teatri tashkil etildi.

XIX-asr oxiri — XX-asr boshlarida modern uslubi o'rnini ratsionalizm egalladi. 1920— 30-yillarda me'morlikda funktsionalizm milliy maktabi shakllandi (Gradets-Kralove shahridagi Gocher inshootlari). Haykaltaroshlikda ham yuksak yutuklarga erishgan. 1950-yillar Pragada yaratilgan chex xalkining milliy qahramoni Yan Jijka, rassom Y. Manes (ikkalasining haykaltaroshi B. Kaofka), Yan Gus (haykaltarosh K. Liditskiy), yovuzchi B. Nemtsova (haykaltarosh K. Pokorniy) haykallari, V. Makovskiyning «Yangi asr» kompozitsiyasi diqqatga sazovor.

1945 yildan keyin turar joylar, jamoat markazlari, yangi ma'muriy va madaniy-maishiy binolar kurish avj oldi. Jumladan, Brno shahridagi xalqaro mashinasozlik yarmarkasi majmui (me'morlar 3. Aleks, F. Lederer), Yeshted tog'idagi teleminora va mehmonxona (me'morlar K. Gubachek, 3. Patrmak) va boshqani ko'rsatish mumkin. 1970—80-y.larda Pragada «Internatsional» mexmonxonasi (me'morlar K. Filsak, I. SHvets), «Kotva» univermagi (me'morlar V. va V. Maxoninlar) va Madaniyat saroyi (me'morlar Ya. Mayer, A. Marek, Ya. Kralik, V. Ustogal), Pragadagi uz. 485 m bo'lgan osma ko'pri (me'morlar V.

¹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.. -Т., 2002, 4-том, 346-бет

Mixalek, S. Gubechka) yaratildi.

Praga universiteti, Karl universiteti — Yevropadagi eng qadimiy unniversitetlardan biri hisoblanadi. U ilk slavyan universitetidir. Universitetga 1348 yil Karl IV asos solgan. CHexiyaning Praga shaxrida joylashgan. Dastlab universitetida erkin san'at, huquq, tibbiyot, teologiya fakul'tetlari bo'lgan. *Guschilar harakati* davrida milliy ozodlik va katolik cherkoviga qarshi kurash markazi hisoblangan. Ikki marta Yan Gus rektorlikka saylangan. 1882 yil nemis va chex universitetiga bo'lingan. Chexoslovakiyani nemis-fashistlari bosib olgan davrda chex un-ti ishlamagan. 1945 yildan keyin faoliyati qayta tiklangan. Matematika, fizika, tibbiyot, pediatriya, falsafa, huquq, madaniyat, jurnalistika, jismoniy tarbiya va sport, pedagogika bo'yicha mutaxassislar tayyorlagan. Bugungi kunda universitetida 25 mingdan ortiq talaba ta'lim oladi. Kutubxonasida 2 mln.dan ortiq asar saqlanadi.

XX asrning birinchi yarmida CHexoslovakiyada murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukmron bo'lsa, uning axolisi milliy madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan.

Xulosa

XX-asr birinchi yarmida Chexoslavakiyada chex tili, milliy madaniyatini saqlash va rivojlantirish uchun milliy harakat avj oldi. Chexoslavakiyada bunday harakatlar XIX-asrning 30—40-yillarida u siyosiy tus ola boshlagan edi. 1848 yil Pragadagi Svyatovatslav yig'ini Gabsburglar imperiyasida 1848—1849 yil inqilobi boshlanishiga olib keldi. 1867 yil Chexoslavakiya Avstriya-Vengriyaning Avstriya qismi tarkibiga kirdi. 1878 yil Chexoslavakiyada Chexoslavyan sotsial-demokratik ishchi partiyasi tuzildi.

Birinchi jahon urushi yillarida Chexoslavakiyada chet el hukmronligiga qarshi milliy ozodlik kurashi kuchaydi. 1919 yil 16 iyunda Preshovda Slovakiya Sovet respublikasi e'lon qilindi, biroq 7 iyulda inter-ventsiyachi qo'shinlar tomonidan tor-mor etildi. Avstriya-Vengriya barbod bo'lgach, 1919 yil 30 oktyabrda Chexiya va Slovakiyaning yagona davlatga birlashdi. Natijasida yagona Chexoslovakiya davlati tashkil topdi.

1918 yil Avstriya-Vengriya parchalangach, Chexoslavakiya Slovakiya bilan birlashib mustaqil Chexoslovakiya Respublikasini tashkil etdilar.

Versal, Sen-Jermen va Trianon shartnomalari Chexoslovakiya chegaralarini belgilab berdi va 1920-yili Yevropa xaritasida Chexoslovakiya nomli yangi davlat paydo bo'ldi. Uning tarkibiga sobiq Avstro-Vengriya va Germaniya hududlarining qismlari — Chexiya, Moraviya, Sileziyaning bir qismi, Slovakiya, Karpatorti Ukrainasi kirdi.

1938 yil oktyabr oyi boshlarida Germaniya Chexoslovakiyaning Sudet viloyati deb nomlangan hududini, 1939 yil martda barcha chex yerlarini bosib oldi va uni «Bogemiya va Moraviya protektorati» deb eʼlon qildi. Chex xalqining 1945 yil maydagi qoʻzgʻoloni natijasida 1945 yil 9 mayda Praga shaxri ozod qilindi. Chex yerlari va Slovakiya Chexoslovakiya Respublikasi doirasida qayta birlashtirildi. Chexoslovakiya 1948 yil 9 maydan Chexoslovakiya Xalq Demokratik Respublikasi deb eʼlon qilindi.

Ikkinchi jahon urushidan soʻng dunyo siyosatida jiddiy oʻzgarishlar boʻldi. BMTning roli ancha kuchaydi.

XX asrning birinchi yarmida Chexoslovakiyada murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyat hukmron boʻlsa, uning axolisi milliy madaniyatni saqlab qolish va rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratgan. 1918 yil mustaqil Chexoslovakiya respublikasi tashkil boʻlgach, milliy madaniyatni rivojlantirish imkoniyati paydo boʻldi. XX asrning birinchi yarmida Chexoslovakiyada madaniy hayotida koʻplab yangi gʻoya va qarashlar bilan boyidi. Bu birinchi navbatda Chexoslovakiyaning mustaqil davlatga aylanishi va sotsialistik, fashistik gʻoyalarning kirib kelishi bilan bogʻliq edi.

XX-asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. SHarqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga boʻlinib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч.Т. 2008.
2. Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. 1992.
3. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т.1998.
4. Каримов И. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, тараққиёт шартлари ва кафолатлари.-Т., 1997.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. –Т. “Ўзбекистон”, 2011.
6. Jahon mamlakatlari. Qisqa ma'lumotnoma. -Т., “Sharq”, 2009.
7. Назарова Г.Ғ., Халилов Х., Эштаев А. ва бошқалар.
8. Жаҳон иқтисодиёти: Ўқув қўлланма. -Т.: Илм –Зиё, 2005.
9. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.. -Т., 2002, 4-том.
10. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. -Т., 2003, 6-том

Internet materiallari.

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziyonet.uz
3. www.history.ru
4. Чехославакия.[http://ru.wikipedia.org/wiki/ Chexoslovakiya](http://ru.wikipedia.org/wiki/Chexoslovakiya)
5. “Жаҳон” – www.jahonnews.uz;

